

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O'RTA MAXMU TAXLIM VAZIRLIG

"TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI  
MEKANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI"  
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI



"PROFESSIONAL TA'LIM VA  
JISMONIY MADANIYAT"  
kafedrası

TIQXMMI  
MTU  
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI

## KASBIY PSIXOLOGIYA

*fanidan amaliy mashg'ulotlarni o'qitish texnologiyalari bo'yicha*

USLUBIY KO'RSATMA



TOSHKENT  
2022

*Ushbu uslubiy qo'llanma universitet ilmiy uslubiy Kengashining 21 iyun 2022 yildagi 6-sonli majlisida ko'rib chiqilgan va chop etishga tavsiya qilingan.*

Ushbu uslubiy ko'rsatma "Kasbiy psixologiya" fanidan amaliy mashg'ulotlarni o'qitish texnologiyalarining zamonaviy tashkiliy shakllarini yoritadi hamda ularni o'ziga xos xususiyatlarini, amalga oshirish usullarini atroflicha ko'rib chiqadi. Shu bilan birga, talabalarni guruhlariga bo'lish va guruhda ishlashni tashkil qilish jarayonida foydalanish mumkin bo'lgan umumiy tamoyillarni taqdim qiladi.

Havola etilayotgan mazkur ta'lim texnologiyasi "Kasbiy psixologiya" o'quv ko'rsatmasida bayon etilgan fikr va mulohazalarni talabalarga yetkazish maqsadida Oliy ta'limning barcha ta'lim yo'nalishining professional ta'lim va nopedagog ta'lim yo'nalishining 2- bosqich talabalar uchun soatlik (18 soat amaliy mashg'ulot) hajmida tayyorlangan. Ta'lim texnologiyasi asosan ushbu kurs bo'yicha ta'lim beradigan professor-o'qituvchilar hamda talabalar uchun mo'ljallangan.

#### **Tuzuvchilar:**

D.I.Muqumova dotsent,

A.A.Jumanov assistent

S.B.Yarova tayyanch doktorant

#### **Taqrizchilar:**

D.O.Ximmataliyev

Toshkent viloyati Chirchiq Davlat Pedagogika instituti  
"Pedagogikasi va menijment" kafedrasi professori

D.A.Mustafoyeva

"Professional ta'lim va jismoniy madaniyat"  
kafedrasi dotsent

## **KIRISH**

Ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, tinglovchilarni ta'limga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablarga muvofiq respublika ta'lim muassasalarini yuqori malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash va 2019 yil 27 avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16-fevraldagi "Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risidagi" 25-son Qarori, "Pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash haqida Nizom" talablari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 20 maydagi "Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risidagi" PQ- 1533-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 26 sentyabrda "Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 278-sonli qarori asosida oliy ta'lim muassasalari nopedagog professor-o'qituvchilarini pedagogik qayta tayyorlashdan o'tkazish, shuningdek pedagog kadrlarni qayta tayyorlash darajasi va sifatini yanada oshirish, uning o'quv-metodik va axborot ta'minotini mustahkamlash masalalari malaka oshirish va qayta tayyorlash muassasalari oldiga alohida vazifalarni qo'ydi.

Ta'lim tizimi pedagoglarining kasbiy mutaxassislikni egallagan bo'lishi, pedagog mutaxassislariga qo'yiladigan davlat talablarini bilishi, zamonaviy innovatsion ta'lim texnologiyalari va ularning turlarini bilishi hamda amalda qo'llay olishi, talaba shaxsi va uning xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'limda individuallik va differensial yondashuvga erishishi, ta'lim tizimida muammoli ta'lim, hamkorlik texnologiyasi va ta'limning innovatsion hamda interfaol metodlarini qo'llay olishi, axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalana olishiga o'rnatish dasturining asosiy maqsadini belgilab beradi.

Nopedagog kadrlarni pedagogik qayta tayyorlash mutaxassislarining bazaviy kasbiy ma'lumotini ta'limning tegishli turi bo'yicha Davlat ta'lim standarti (Davlat talablari) mazmuni belgilangan o'quv-tarbiya jarayonining sifat samaradorligini ta'minlaydigan darajada pedagogik faoliyatni yuritish uchun zarur va yetarli bo'lgan

pedagogik tayyorgarlik talablariga muvofiqlashtirish maqsadida amalga oshiriladi.

Umumiy psixologiya moduli dasturi shaxsning asosiy bilish jarayonlari qonuniyat va mexanizmlari, shaxsning individual psixologik xususiyatlari kabi mavzularni o'z ichiga olib, amaliyotchi psixologning asosiy nazariy bilimlari asosini tashkil etadi. Umumiy psixologiyaning asosiy bilim va tushunchalarini o'zlashtirish o'quv jarayonida o'zlashtirishning yuqori ko'rsatkichlariga erishish, shuningdek psixologning amaliy faoliyatini samarali tashkil etish imkonini beradi.

**Fanning maqsadi va vazifalari:**

**Fanning maqsadi:** kasbiy psixologiya fani bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish hamda takomillashtirishda hozirgi zamon psixologik bilimlar, o'quv jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish malakalarini egallashga yordam berish.

**Fanning vazifalari:**

- talabalarda psixologiyaning o'rganish uchun zarur bo'lgan metodologik bilimlarni shakllantirish, psixika haqidagi ilmiy bilimlarni berish;
- ta'lim-tarbiya jarayonida shaxsning psixologiyasini o'rganishda ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni rivojlantirish;
- bilish jarayonlari hamda ularning qonuniyatlari to'g'risidagi bilimlarni berish va amaliy jihatdan qo'llashga o'rgatish.

**Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

**Talaba:**

- asosiy psixologik tushunchalar, kasbiy psixologiya fanida zamonaviy yondashuvlar;
- shaxs psixologiyasi, faoliyatni anglash jarayonlari, shaxsni individual psixologik xususiyatlari to'g'risida;
- psixika taraqqiyoti qonuniyatlarini bilishi;
- hozirgi zamon psixologiya fanining metodlarini amalda qo'llay olish ko'nikmalarini;
- ta'lim-tarbiya jarayonida shaxsning psixologiyasini o'rganishda ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanish malakalariga;
- amaliy psixologning kasbiy va metodik jihatdan tayyorligi;
- psixologik maslahatlar berishda bolalarning bilish faoliyatini tashkil etish va nazorat qilish;
- mustaqil ishlarni tashkil etish va qobiliyatlarni aniqlash

**kompetensiyalarini egallashi lozim.**

**Amaliy mashg'ulotni o'tkazish bo'yicha tavsiyalar**

Kasbiy psixologiya fanining amaliy mashg'ulotlar shaklida olib borilishi. Mashg'ulotlarda kasbiy psixologiya fanining predmeti, ilmiy asoslari, faoliyat va emotsiya psixologiyasi, shaxs psixologiyasi, shaxsning psixik jarayonlari haqida bilimlar beriladi.

Mashg'ulotlarda texnik vositalardan, testlar, psixodiagnostik metodikalar, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash va boshqa interfaol ta'lim usullaridan foydalanish nazarda tutiladi.

**Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uzviyligi**

Mashg'ulotning mazmuni Kasbiy psixologiya fanini mukammal o'zlashtirishda kasbiy psixologiya fanining barcha tarmoqlari muhim ahamiyat kasb etishi bilan birga, o'quv dasturining "ijtimoiy psixologiya", "Umumiy psixodiagnostika", "Pedagogik psixologiya" fanlari bilan mazmuniy jihatdan bog'langan. Kasbiy psixologiya fani, shuningdek o'quv dasturining boshqa barcha modullari uchun metodologik asos, ilmiy yondashuv prinsiplarini belgilaydi.

**Amaliy mashg'ulotning uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi**

Mazkur modul kasbiy psixologiyaning psixodiagnostika, ontogenez psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya kabi tarmoqlari bilan bevosita bog'liq va umumiy metodologik asoslarga egadir.

**Amaliy mashg'ulotning ta'limdagi o'rni**

Talabalar uchun psixologik bilimlarning nazariy asosi, eng fundamental bilimlar hisoblanib, psixikaning umumiy qonuniyatlari, mexanizmlarini o'rganadi. Talabalar uchun bu kurs bo'yicha olinadigan bilimlar juda muhim ahamiyat kasb etib, amaliy psixologiyaning boshqa tarmoq va bo'limlari umumiy psixologiyaning qonuniyat va mexanizmlarining asosini tashkil etadi.

## I. AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

### 1-mavzu: Kasbiy psixologiya fanining predmeti (2 soat)

Psixologiya tabiiy va ijtimoiy ilmiy fan sifatida. Psixologiya psixik aks ettirish haqidagi fan sifatida. Psixik aks ettirish ob'yektiv olamni sub'yektiv obrazi ekanligi to'g'risida. Hozirgi zamon psixologiya fanining metodlari to'g'risida: kuzatish, suhbat, eksperiment va ularning turlari, diagnostik testlar.

### 2-mavzu: Biliş jarayonlari, professional faoliyat. (2 soat)

Miyaning psixofiziologik holati va psixika. Psixologiya fanining qonuniyati va mexanizmlari. Psixikaning reflektor tabiati. Psixika va ong. Ong va ongsizlik to'g'risida (anglanmagan, ong darajasiga borib etmagan harakatlar) ma'lumot.

### 3-mavzu: Professiografya (professiogramma) to'g'risida umumiy tushuncha. (2 soat)

Interiorizatsiya va eksteriorizatsiya haqida tushuncha. Yetakchi faoliyat haqida tushuncha. Motivatsiya sohalarining umumiy tuzilishi. Motivlar va ustanovkalar. Emotsiya. Emotsional jarayonlarning umumiy xarakteristikasi. Kayfiyat, stress, affektlar. Insomning yuksak hislari.

### 4-mavzu: Shaxs psixologiyasi. Peculiarities of professional self-development of a future teacher in the context of personality-oriented pedagogy. (2 soat)

Individ, shaxs, individuallik. Shaxsning tuzilishi. Shaxs taraqqiyotining davrlarga bo'linishi. Shaxs shakllanishining ijtimoiy shart-sharoitlari. Irodaviy harakatlar va irodaviy boshqarish. Shaxsning irodaviy tuzilishi. Temperament haqida tushuncha. Psixologiyada xarakter muammosi. Xarakter va temperament. Xarakter xislatlari. Qobiliyatlarining sifat va miqdor xarakteristikasi.

### 5-mavzu: O'qituvchi va o'quvchi ta'lim jarayonida muloqot va hamkorlik (2 soat)

Shaxs psixik jarayonlarining xususiyatlari. Shaxs taraqqiyotini davrlashtirish masalalari. Shaxs shakllanishining ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlari. Shaxsning irodaviy tuzilishi va sifatlari. Temperament haqida tushuncha. Psixologiyada xarakter muammosi.

### 6-mavzu: Shaxsning individual-tipologik xususiyatlar klassifikatsiyasi. (2 soat)

Shaxsning individual psixologik xususiyatlarini o'rganishga yo'naltirilgan metodikalar. Temperament tiplarini o'rganishga mo'ljallangan metodika. K. Leongardning xarakter tiplarini aniqlashga mo'ljallangan metodikalari. Shaxsning irodaviy tuzilishi va sifatlarini o'rganish.

### 7-mavzu: Kasbiy maslahat va kasbga yo'llashning mohiyati. (2-soat)

Shaxs ijtimoiylashuvda muloqotning roli. Muloqot haqida tushuncha. Muloqotning kommunikativ tomoni. Muloqotning interaktiv tomoni. Muloqotning

persektiv tomoni. O'zaro bir-birini idrok qilish mexanizmlari. Muloqot darajalari va turlari

### 8-mavzu: Psixodiagnostika haqida tushuncha.

Kasbiy psixologiyada psixodiagnostik usullar tushunchasi. Kasbga yo'naltirish va kasbiy saralash maqsadlarida, psixiogram-malarni ishlab chiqishda, birinchi navbatda psixodiagnostik tadqiqotlar muhimdir. Qolgan tadqiqotlar, o'quvchilar, kasbiy o'quv muassasalarining talabalar, ishga qabul qilinayotgan shaxslar o'qishi va ishlab kerak bo'lgan sharoitlarni aniqlashtirish uchun ahamiyat kasb etadilar. Ammo ular ham muhimdir, chunki konkret ishlab chiqarish majburiyatlarini va mehnat sharoitlarini bilmasdan turib, kasbga yo'llash, kasbiy saralash va ish uchun nomzodning kasbiy yaroqliligini aniqlash ishlarini tashkil qilib bo'lmaydi.

### 9-mavzu: Boshqaruv psixologiyasi haqida tushuncha.

Kundalik amaliyot shuni ko'rsatmoqda-ki, odamlar orasida sezilarli individual farqlar mavjud. Individuallik fikr yuritish, qarashlar va xatti-harakatlarda namoyon bo'ladi. Shaxsning xarakteri, qobiliyatlari, maqsad sari yo'naltiriligidagi o'ziga xoslik, o'z navbatida har bir odamning ayrim kasblarga nisbatan o'zgacha moslik va moyilliklarni paydo qiladi. Ba'zi bir kasblar inson psixikasiga yuqori yoki maxsus talablar qo'yuvchi ishlar bilan bog'liq bo'ladi. Mazkur kasb bo'yicha kerakli individual mosligini tekshirmay turib, har qanday odamlarni bunday ishlarga qo'yib bo'lmaydi. Ayniqsa, poezd haydovchisi, shofer, operator, uchuvi kabi kasblar hammaga ham mos kelavermaydi. Bunday kasblardan tashqari boshqaruvning har xil darajalarida o'ziga yarasha, rahbar xodimlarga ham farqli ma'lum bir shaxsiy talablar qo'yiladi.

Ushbu barchaga ma'lum faktlarga ko'ra shunday hulosalar kelib chiqadiki, odamni ishga qabul qilishdan avval uni har tomonlama tekshirish kerak. So'ngra ushbu tekshiruvlar asosida, mazkur odamning mehnatga layoqatligi bo'yicha, ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish kerak.

### O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustabkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rilyotgan topshiriqlar echimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- baxs va munozaralar (topshiriqlar echimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

### MUSTAQIL TA'LIM MAZMUNI

Modulga oid o'rganilgan materiallar asosida "Kasbiy psixologiya" mavzusida mustaqil ish bajariladi.




**“FSMU” metodi**

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur metoddan ma'ruza mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, o'tilgan mavzuni so'rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

**Metodni amalga oshirish tartibi:**

- qatnashchilarga mavzuga oid bo'lgan yakuniy xulosa yoki g'oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU metodining bosqichlari yozilgan qog'ozlarni tarqatiladi;



- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhii tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirishiga asos bo'ladi.

**Jadvalni to'ldiring**

Topshiriq: Pedagog faoliyatida umumiy psixologiya fani bo'yicha bilimlarni qo'llashning o'ziga xos tomonlari	
F	
S	
M	
U	

1-guruh

Savol	psixologik bilimdonlik nimalarda ifodalarnadi deb o'ylaysiz?
F-fikringizni bayon eting	
S-fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
M-ko'rsatilgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
U- fikringizni umumlashtiring	

2-guruh

Savol	O'quv jarayoniga (ta'lim) moslasha olmaslikka sabab nima?
F-fikringizni bayon eting	
S-fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
M-ko'rsatilgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
U- fikringizni umumlashtiring	

3-guruh

Savol	Shaxsda emotsional sohaning buzilishiga qanday omillar ta'sir etadi?
F-fikringizni bayon eting	
S-fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
M-ko'rsatilgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
U- fikringizni umumlashtiring	

**“Assesment” metodi**

**Metodning maqsadi:** mazkur metod ta'lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

**Metodni amalga oshirish tartibi:**

“Assesment”lardan ma'ruza mashg'ulotlarida tinglovchilarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assisment metodi orqali qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

**“Tushunchalar tahlili” metodi**

**Metodning maqsadi:** mazkur metod tinglovchilar yoki qatnashchilarni mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo'yicha dastlabki bilim darajasini tashhis qilish maqsadida qo'llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- ishtirokchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- ishtirokchilar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o'qituvchi berilgan tushunchalarning to'g'ri va to'liq izohini o'qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to'g'ri javoblar bilan o'zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

**Namuna:**

**“Tushunchalar tahlili” organayzerini to'ldiring.**

Muhim muammoning yechimini topishga yordam beradi va “tushunchalar tahlili” usuli orqali muammo hal qilinadi.

Tushunchalar	Mazmuni
O'smirlilik	
Jismoniy rivojlanish	
Akseleratsiya	

1-guruh

Tushunchalar	Mazmuni
O'smirlilik inqirozi	
Inqiroz belgilari	
Ijtimoiylashuv	

2-guruh


**“Venn diagrammasi” metodi**

**Metodning maqsadi:** bu metod grafik tasvir orqali o'qitishni tashkil etish shakli bo'lib, u ikkita o'zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanaadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavvurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko'rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlari aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

**Metodni amalga oshirish tartibi:**

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladi va ularga ko'rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o'ziga xos, farqli jihatlari (yoki aksi) doiralari ichiga yozib chiqish topshiriladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to'rt kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiriladi va har bir juftlik o'z tahlili bilan guruh a'zolarini tanishtiradi;
- juftliklarning tahlili eshutilgach, ular birgalashib, ko'rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy (yoki farqli) jihatlari izlab topadilar, umumlashtiriladi va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

**Namuna: Kasbiy psixologiya bo'limlari**



**“Blits-o'yin” metodi**

**Metodning maqsadi:** ta'lim oluvchilarda tezlik, axborotlar tizimini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maqsadida qo'llash samarali natijalarni beradi.

**Metodni amalga oshirish bosqichlari:**

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya'ni tarqatma materiallar alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o'rganish talab etiladi. Shundan so'ng, ishtirokchilarga to'g'ri javoblar tarqatmadagi “yakka baho” kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.
2. Navbatdagi bosqichda trener-o'qituvchi ishtirokchilarni uch kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiradi va guruh a'zolarini o'z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta'sir o'tkazib, o'z fikrlariga ishontrish, kelishgan holda bir to'xtamga kelib, javoblarni “guruh bahosi” bo'limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.
3. Barcha kichik guruhlarning o'z ishlari tugatgach, to'g'ri harakatlar ketma-ketligi trener-o'qituvchi tomonidan o'qib eshittiriladi va ishtirokchilardan bu javoblarni “to'g'ri javob” bo'limiga yozish so'raladi.

4. "To'g'ri javob" bo'limida berilgan raqamlardan "yakka baho" bo'limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bo'lsa "0", mos kelsa "1" ball qo'yish so'raladi. Shundan so'ng "yakka xato" bo'limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo'shib chiqilib, umumiy yig'indi hisoblanadi.

5. Xuddi shu tartibda "to'g'ri javob" va "guruh bahosi" o'rtasidagi farq chiqariladi va ballar "guruh xatosi" bo'limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo'shiladi va umumiy yig'indi keltirib chiqariladi.

6. Trener-o'qituvchi yakka va guruh xatolarini to'plangan umumiy yig'indi bo'yicha alohida-alohida shahlab beradi.

7. Ishitirokchilarning olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo'yicha o'zlashtirish darajalari aniqlanadi.

### III. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

#### TALABALARNING SHAXS XUSUSIYATLARI.

#### TALABALARNING XULQ-ATVORIDA KUZATILADIGAN TEMPERAMENTNING SXEMASI

1. Tezkorlik bilan bajarilishi kerak bo'lgan vaziyatda:

a) ishga osonlikcha kirishib keta oladi; b) ishtiyiq bilan (bajaradi) qiladi; v) hech qanday so'zsiz, tinch va osoyishta bajaradi; g) ishonchsizlik va qo'rquv bilan ishga kirishadi.

2. O'qituvchi tomonidan qilingan tanbehni tinglovchilar qanday qabul qiladi:

a) endi boshqa hech takrorlamayman, deb va'da beradi, lekin biroz vaqt o'tgach yana shu qiliq va odatlarini qilaveradi; b) unga qilingan tanbehga e'tiroz bildiradi; v) tinglaydi va tinchgina qabul qiladi; g) jimib qoladi, xafa va norozi bo'ladi.

3. O'rtoqlari bilan muhokama qilinadigan savollarni boshlashdan oldin u juda hayajonlanadi va gapiradi:

a) tezda qizishib gapiradi, lekin boshqalarning gapini ham eshitadi; b) tezkorlik bilan, hayajonga beriladi, lekin o'zgalarni eshitmaydi; v) sekin, tinchgina va ishonch bilan;

g) katta shubha va hayajon bilan.

4. Nazorat ishini topshirish payti bo'ldi, lekin ish hali tugallanmagan yoki xatolari to'g'ri qilingan vaziyatda:

a) bo'layotgan vaziyatni yengil va oson qabul qiladi; b) ishini tugatishga shoshiladi, xatolarni to'g'rilash haqida o'ylaydi; v) xatolar haqida kam gapiradi, berilgan topshiriqlarni tinch bajaradi, o'qituvchining o'zi uni oldiga kelib ishini olmaganicha tinch bajaraveradi;

g) so'zsiz o'z ishini topshiradi, lekin yuzida topshiriqni to'g'ri bajaragan yoki bajarmaganligi haqida shubhalanayotganligini va ishonchsizlanayotganligini ko'rsatadi.

5. Agar murakkab topshiriq o'z vaqtida yechimini topmasa:

a) ishini tashlaydi, keyin yana topshiriqni yechimini topishni davom ettiradi; b) birdaniga topshiriqni berilib ishtiyiq bilan yechadi, lekin vaqti-vaqti bilan

o'z e'tirozlarini bildirib turadi;

v) tinchgina bajaradi;

g) ularda o'ziga bo'lgan ishonchsizlik, o'zini yo'qotib qo'yishlik kuzatiladi.

6. Uyiga ketishga shoshilayotgan tinglovchini, o'qituvchi yoki sinf sardori uni darsdan keyin qolib berilgan topshiriqlarni aniq va to'liq bajarib ketishga taklif qilingan vaziyatda:

a) tez rozi bo'ladi;

b) e'tiroz bildiradi;

v) hech bir gap yoki so'z demasdan qoladi; g) o'zini yo'qotib qo'yadi.

7. Notanish (joylarda) hollarda:

a) zudlik bilan faol ravishda, osonlik bilan va tezda o'zi uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni olishga erishadi va tezda qaror qabul qiladi;

b) o'z faolligini o'zi uchun zarur bo'lmagan narsa yoki xodisaga qaratmaganligi tufayli, u o'zi uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni olishga erisholmaydi, lekin tez qaror qabul qiladi;

v) atrofida bo'layotgan voqea yoki xodisalariga tinch va xotirjamgina diqqatini jalb qiladi, qaror qabul qilishga shoshilmaydi;

g) bo'layotgan voqea yoki xodisalar bilan o'ziga bo'lgan ishonchsizlik va tortinchoqlik bilan tanishadi, qaror qilishga shoshilmaydi.

#### TEST NATIJASIGA SHARH:

Gap boshida turgan harf shu temperament turiga kiradi:

A-SANGVINIK B-XOLERIK

V-FLEGMATIK G-MELANXOLIK

#### NATIJALARNI RASMIYLASHTIRISHNING NAMUNAVIY VARIANTI

vaziyat	TEMPERAMENT	a	b	v	g
1		+			
2				+	
3			+		
4			+		
5			+		
6					+
7			+		
Jami:		1	4	1	1

#### Xavotirlanish darajasini aniqlash metodikasi

Mazkur so'rovnomaga CH.D.Spilberger tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, xavotirlanuvchanlik (SHX) darajasini aniqlashga xizmat qiladi (so'rovnomaga YUL.Xanin tomonidan modifikatsiya qilingani tufayli ko'pincha «Spilberger – Xanin so'rovnomasi» deb yuritiladi). So'rovnomaga 40 ta ta'kid



hukmdan iborat (20 ta ta'kid – hukm VX darajasini, 20 ta ta'kid – hukm SHX darajasini o'ichashga xizmat qiladi).

(VX) **Ko'rsatma:** Berilgan ta'kid – hukmlarga qanchalik qo'shilishingizni bildiring. Buning uchun har bir ta'kid – hukm qatorida keltirilgan va tegishli javob variantining ustunida berilgan raqamlar (1,2,3,4) dan biri o'chirib qo'ying.

№	Ta'kid – hukmlar	Javoblar			
		Bunday emas	Shunday shakilli	Shunday	Aynan shunday
1	Men xotirjamman	1	2	3	4
2	Menga hech narsa havf solmayapti	1	2	3	4
3	Asablarim juda tajang bo'lib turibdi	1	2	3	4
4	Men ich-ichimdan siqilyapman.	1	2	3	4
5	Men o'zimni erkin his etyapman	1	2	3	4
6	Men xafaman	1	2	3	4
7	Men ro'y berishi mumkin bo'lgan omadsizliklardan xavotirdaman	1	2	3	4
8	Men ruhiy taskinlik his etayapman.	1	2	3	4
9	Men bezovtaman	1	2	3	4
10	Qoniqish hissi ich-ichimdan meni qamrab olgan	1	2	3	4
11	Men o'zimga ishonyapman	1	2	3	4
12	Men asabiylashyapman	1	2	3	4
13	Men o'zimni qo'yarga joy topa olmayapman	1	2	3	4
14	Men qiziqib ketdim	1	2	3	4
15	Men siqilmayapman, asablarim joyda	1	2	3	4
16	Men xursandman	1	2	3	4
17	Men tashvishdaman	1	2	3	4
18	Halovatim yo'q	1	2	3	4
19	Men quvonyapman	1	2	3	4
20	Yoqimli hislar meni chulg'ab olgan	1	2	3	4

(SHX) **Ko'rsatma.** Berilgan ta'kid – hukmlar haqiqatga qanchalik yaqin ekanini bildiring. Buning uchun har bir ta'kid – hukm qatorida keltirilgan va tegishli javob variantining ustunida berilgan raqamlar (1,2,3,4) dan birini o'chirib qo'ying.

№	Ta'kid – hukmlar	Javoblar			
		Hech gachon	Deyarli hech gachon	Shunday	Aynan shunday
1	Kayfiyatim ko'tarinki bo'lib turadi	1	2	3	4
2	Asablarim tajang bo'lib turadi	1	2	3	4
3	Arzimagan narsadan hafa bo'lib qolaman	1	2	3	4
4	Boshqalar singari omadli bo'lishni istayman	1	2	3	4
5	Ko'ngilsizliklarni uzoq vaqt esimdan chiqara olmayman	1	2	3	4
6	Men kuchimga kuch qo'shilganini sezaman	1	2	3	4
7	Men bosiq va vazminman	1	2	3	4
8	Men oldimdan chiqishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni o'ylab bezovtalanaman	1	2	3	4
9	Men arzimagan narsalarni deb qattiq siqilib yuraman	1	2	3	4
10	Men o'zimni juda baxtiyor his etaman	1	2	3	4
11	Men hamma narsani yuragimga yaqin olaman	1	2	3	4
12	O'z-o'zimga bo'lgan ishonch yetishmasligidan qiynalaman	1	2	3	4
13	Men o'zimni himoyasiz his etaman	1	2	3	4
14	Men xatarli vaziyat va narsalardan uzoqroq yurishga harakat qilaman	1	2	3	4
15	Yuragim g'ash bo'lib turadi	1	2	3	4
16	Men xursand bo'lib turaman	1	2	3	4
17	Har xil mayda-chuydalar menichalg'itadi va bezovta qiladi	1	2	3	4
18	O'zimni omadsiz insondek his etaman.	1	2	3	4
19	Men o'zimni qo'lga ola bilaman	1	2	3	4
20	Ish va yumushlarim haqida o'ylaganimda halovatim yo'qoladi	1	2	3	4

**Kalit**

№	VX				№	SHX			
	JAVOBLAR					JAVOBLAR			
1	4	3	2	1	1	4	3	2	1
2	4	3	2	1	2	1	2	3	4
3	1	2	3	4	3	1	2	3	4
4	1	2	3	4	4	1	2	3	4
5	4	3	2	1	5	1	2	3	4
6	1	2	3	4	6	4	3	2	1
7	1	2	3	4	7	4	3	2	1
8	4	3	2	1	8	1	2	3	4
9	1	2	3	4	9	1	2	3	4
10	4	3	2	1	10	4	3	2	1
11	4	3	2	1	11	1	2	3	4
12	1	2	3	4	12	1	2	3	4
13	1	2	3	4	13	1	2	3	4
14	1	2	3	4	14	1	2	3	4
15	4	3	2	1	15	1	2	3	4
16	4	3	2	1	16	4	3	2	1
17	1	2	3	4	17	1	2	3	4
18	1	2	3	4	18	1	2	3	4
19	4	3	2	1	19	4	3	2	1
20	4	3	2	1	20	1	2	3	4

**Natijalarni hisoblash va baholash**

Kalit asosida avval xavotirlanuvchanlikning har ikkala turi bo'yicha ballar yig'indisi alohida-alohida hisoblab chiqiladi. So'ngra olingan ko'rsatkichlar quyida keltirilgan taxminiy baholar asosida talqin etiladi:

30 ballgacha - xavotirlanuvchanlik darajasi past. 31-44 ball

xavotirlanuvchanlik darajasi o'rta.

45 va undan katta ball - xavotirlanuvchanlik darajasi yuqori.

**Xavotirlanish darajasini o'lchash shkalasi**

Mazkur shkala – so'rovnomaga A.M.Prixojan tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, 8-10 sinf tinglovchilarining xavotirlanuvchanlik darajasini o'rganishda qo'llanilishi mumkin. Metodikaning e'tiborli jihati shundaki, uning yordamida tinglovchi hayotining qaysi sohasi unda ko'proq xavotir uyg'otishini aniqlash mumkin. So'rovnomaga matnida 30 xil vaziyat tasvirlangan. Tekshiriluvchi ushbu vaziyatlar uning uchun qanchalik yoqimsiz ekanini bildirishi kerak.

**Ko'rsatma.** Quyida siz hayotda uchratadigan turli vaziyatlar sanab o'tilgan. Ularning ba'zilari sizga yoqimsiz bo'lishi, sizda xavotir, tahlika, qo'rquv uyg'otishi mumkin. Vaziyatlar sizga qanchalik yoqimsiz ekanini 0,1,2,3,4 raqamlaridan foydalanib belgilang. Bunda: 0 – vaziyat sizga hech ham yoqimsiz emas; 1- vaziyat sizni biroz xavotirga soladi; 2 – vaziyat shunchaki, siz undan narivoq bo'lishni istaysiz; 3 – vaziyat sizga judayam yoqmaydi, sizda kuchli xavotir uyg'otadi; 4 – vaziyat sizda kuchli qo'rquvni uyg'otadi, siz unga chiday olmayasiz.

**Metodikaning matni**

1	Doskaga chiqib javob berish	0, 1, 2, 3, 4
2	Notamish odamlar uyiga borish	0, 1, 2, 3, 4
3	Musobaqa, tanlov, olimpiadalarda ishtirok etish	0, 1, 2, 3, 4
4	Maktab direktori bilan suhbatlashish	0, 1, 2, 3, 4
5	O'z kelajagingiz haqida o'ylash	0, 1, 2, 3, 4
6	O'qituvchi kimdandir so'rash uchun jumalga qarayapti	0, 1, 2, 3, 4
7	Sizni tanqid qilishyapti, nimagadir urishyaptilar	0, 1, 2, 3, 4
8	Biror ish qilayotganingizda sizga tikilib turishibdi	0, 1, 2, 3, 4
9	Nazorat ishi yozyapsiz	0, 1, 2, 3, 4
10	Nazorat ishidan keyin o'qituvchi baholarni e'lon qilayapti	0, 1, 2, 3, 4
11	Sizga e'tibor beryaptilar	0, 1, 2, 3, 4
12	Nimanidir qila olmayapsiz	0, 1, 2, 3, 4
13	Ota-onalar majlisidan ota-onangiz qaytishini kutyapsiz	0, 1, 2, 3, 4
14	Sizni muvaffaqiyatsizlik, mag'lubiyat kutmoqda	0, 1, 2, 3, 4
15	Orqangizdan kulgu yangrayapti	0, 1, 2, 3, 4
16	Maktabda imtihon topshiryapsiz	0, 1, 2, 3, 4
17	Birov sizga jahl qilayapti, lekin negaligini bilmayapsiz	0, 1, 2, 3, 4
18	Katta auditoriya oldida so'zga chiqdingiz	0, 1, 2, 3, 4
19	Oldingizda juda muhim, hal qiluvchi ish turibdi	0, 1, 2, 3, 4
20	O'qituvchingiz tushuntirishlarini tushunmayapsiz	0, 1, 2, 3, 4
21	Siz kim bilandir kelisha olmayapsiz	0, 1, 2, 3, 4
22	Siz o'zingizni boshqalar bilan qiyoslayapsiz	0, 1, 2, 3, 4
23	Sizning qobiliyatlaringizni sinashyapti	0, 1, 2, 3, 4
24	Sizga yosh boladek munosabatda bo'lishyapti	0, 1, 2, 3, 4
25	Darsda o'qituvchi sizga to'satdan savol berib qoldi	0, 1, 2, 3, 4
26	Siz kelgach, gaplashib turganlar jim bo'lib qoldi	0, 1, 2, 3, 4
27	Sizning ishingizni baholashmoqda	0, 1, 2, 3, 4
28	O'z ishlaringiz haqida o'ylayapsiz	0, 1, 2, 3, 4
29	O'zingiz uchun muhim bo'lgan biror qaror qabul qilayapsiz	0, 1, 2, 3, 4
30	Uy vazifasini qila olmayapsiz	0, 1, 2, 3, 4

Xavotirlanish turlari va ularga mos keluvchi vaziyatlarning tartib raqamlari

Xavotirlanish turi	Xavotirlanish turiga mos keluvchi vaziyatlar tartib raqami
Maktab bilan bog'liq xavotirlanish	1 4 6 9 10 13 16 20 25 30
O'z-o'zini baholash bilan bog'liq xavotirlanish	1 5 12 14 19 22 23 27 28 29
Shaxslararo munosabatlar bilan bog'liq xavotirlanish	2 7 8 11 15 17 18 21 24 26

Natijalarni hisoblash va baholashda avval xavotirlanishning har bir turi bo'yicha ballar yig'indisi hisoblab chiqiladi. Xavotirlanishning har bir turi bo'yicha to'plangan ballarni o'zaro qo'shish bilan umumiy ball topiladi. So'ngra olingan ko'rsatkichlar 1 - jadvaldagi standartlar asosida baholanadi.

Xavotirlanish turi	Xavotirlanuvchanlik darajalari (ballarda)		
	Me'yorda	Biroz yuqori	O'rta yuqori
Maktab bilan bog'liq xavotirlanish	5 - 18	19 - 24	25 - 30
O'z-o'zini baholash bilan bog'liq xavotirlanish	7 - 19	20 - 25	26 - 31
Shaxslararo munosabatlar bilan bog'liq xavotirlanish	6 - 18	19 - 25	27 - 32

O'quv motivatsiyasining yo'nalganligini tashxis qilish metodikasi

Test - so'rovnomma shaklidagi mazkur metodika muayyan fanlarni o'rganishga qaratilgan o'quv faoliyati motivatsiyasining yo'nalganligini va ta'lim oluvchi shaxs ichki motivatsiyasining darajasini o'lchash uchun xizmat qiladi. Ushbu metodika ta'lim oluvchilarning barcha guruhlarini bilan (12 yoshdan boshlab) - o'z-o'zini tahlil qilishga va o'zi haqida xulosa chiqarishga qodir bo'lgan har qaysi ta'lim oluvchi bilan o'tkazilishi mumkin.

Metodika T.D.Dubovitskaya tomonidan tuzilgan bo'lib, uning stimull materiallari 20 ta ta'kidlan iborat. Mazkur ta'kidlar bo'yicha tekshiruvchilar ma'lum fanlarga nisbatan o'z munosabatini bildirib, maxsus javob varaqasi (1 - jadval) ning muayyan ustun va startlarida tegishli belgilarni qo'yadilar: «to'g'ri» - (q q); «to'g'ri, shekilli» - (q); «noto'g'ri, shekilli» - (q); «noto'g'ri, shekilli» - (-); «noto'g'ri» - (- -).

Javob varaqasi

O'rganilayotgan fanlar	
Matematika	Psixologiya
1	...
2	
...	
19	
20	

**Qanday fanlarning tanlanishi eksperimentator ixtiyorida**

Ta'kidlar

1. Ushbu fanni o'rganish orqali o'zimiz uchun ko'p kerakli narsalarni o'rganib olyapman, o'z qobiliyatlarimni namoyish etish imkoniyatiga ega bo'lib turibman.
2. Bu fan menga qiziq va men shu fan yuzasidan imkon qadar ko'proq narsa bilishni xohlayman.
3. Mazkur fanni o'rganishimda menga darsda beriladigan bilimlarning o'zi kifoyadir.
4. Ushbu fan bo'yicha beriladigan topshiriqlar menga qiziq emas, men ularni o'qituvchi talab qilgani uchungina bajaraman.
5. Bu fanni o'rganishda oldimda paydo bo'luvchi qiyinchiliklar fanga bo'lgan qiziqishimni yanada orttirib yuboradi.
6. Mazkur fanni o'rganishda darslik va tavsiya etilgan adabiyotlardan tashqari mustaqil ravishda qo'shimcha adabiyotlar bilan tanishib boraman.
7. Ushbu fanga tegishli murakkab nazariy masalalarni o'rganmasa ham bo'ladi, deb hisoblayman.
8. Bu fanni o'rganishda biror ishning uddasidan chiqolmasa, men muammoning tagiga etishga harakat qilaman.
9. Mazkur fandan dars o'tilganda negadir umuman o'qishni istamay qolaman.
10. Ushbu fan yuzasidan beriladigan topshiriqlar ustida faqat o'qituvchi nazorat qilib turgandagina ishlayman.
11. Bu fanga taalluqli ma'lumotlarni bo'sh vaqtda (tanaffusda, uyda) sinfdoshlarim (do'stlarim) bilan muhokama qilish menga qiziq tuyuladi.
12. Mazkur fandan topshirilgan vazifalarni mustaqil bajarishga harakat qilaman, kimdirming maslahat va yordam berib turishini yoqtirmayman.
13. Ushbu fanga tegishli topshiriqlarni boshqalardan ko'chirib olishga harakat qilaman yoki kimdandir vazifani o'rningga qilib berishini iltimos qilaman.
14. Bu fan bo'yicha beriladigan barcha bilimlar kerak deb hisoblayman, shuning uchun bu fandan imkon boricha ko'proq narsa bilish kerak degan fikrdaman.
15. Mazkur fan bo'yicha qo'yiladigan baho menga bu fandan beriladigan bilimdan muhimroq.
16. Ushbu fandan o'tkaziladigan darsga yaxshi tayyorgarlik ko'rmagan bo'lsam, bundan unchalik qattiq xafa bo'lmayman.
17. Bu fan bilan shug'ullanish uchun men bo'sh vaqtimning ham katta qismini unga sarflayman.

18. Mazkur fanni qiyinchilik bilan o'zlashtiraman, shu fan bo'yicha beriladigan topshiriqlarni o'zimni majburlab bajaraman.

19. Ushbu fan bo'yicha o'tkaziladigan darsda kasallik yoki boshqa sabab bilan qatnasha olmasam, xafa bo'lishim mumkin.

20. Agar imkoniyatim bo'lganda, men bu fanni dars jadvali (o'quv rejas) dan olib tashlagan bo'lardim.

#### Natijalarni qayta ishlash va baholash

Natijalar quyidagi kalit yordamida qayta ishlanadi:

“to'g'ri”, “to'g'ri shekilli” - 1, 2, 5, 6, 8, 11, 12, 14, 17, 19.

“noto'g'ri”, “noto'g'ri shekilli” - 3, 4, 7, 9, 10, 13, 15, 16, 18, 20.

Kalitga mos kelgan har bir holat uchun 1 ballidan qo'yiladi. Barcha ballar yig'indisi qanchalik katta bo'lsa, tegishli fanni o'rganishda ichki motivatsiya shunchalik baland bo'ladi. Ballar yig'indisi qanchalik kichik bo'lsa, ichki motivatsiya darajasi shunchalik sust bo'ladi. Umumiy natijalarni baholashda quyida keltirilgan me'yoriy ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin:

0 – 10 ball – tashqi motivatsiya ustun; 11 – 20 ball – ichki motivatsiya ustun.

Ichki motivatsiya darajasini baholash uchun quyidagi me'yoriy ko'rsatkichlarga tayanish mumkin:

0 – 5 ball – ichki motivatsiya past darajada;

5 – 10 ball – ichki motivatsiya past darajada; 6 – 14 ball – ichki motivatsiya o'rtta darajada;

15 – 20 ball – ichki motivatsiya yuqori darajada.

Eslatma: ilmiy tadqiqot o'tkazish maqsadida birlamchi («xomaki»)

natijalardan foydalanish tavsiya etiladi

#### “Avtoportret” metodikasi

Mualliflar: E.S.Romanova, S.F.Potyomkina. Proektiv metodikalardan biri. Katta maktab tinglovchilarining shaxsini diagnostika qilish uchun qo'llanishi mumkin. Avtoportret – insonning o'zi chizgan qiyofasi. Bu metodikaning ikki xil interpretatsiyasidan biri mualliflar, ikkinchisi R.Berns (AQSH) tomonidan taklif qilingan.

#### Interpretatsiya № 1

“Avtoportret” testi R.Berns (AQSH, Insonlararo munosabatlarni rivojlantirish instituti, Sietl) tomonidan qo'llanganda, u kishilarga o'zining yakka holdagi yoki oila a'zolari bilan birga, hamkasblarning orasida tasvirlashni iltimos qilgan. R.Berns shunday yozadi: «Siz uyga kelib o'kirib-o'kirib yig'lashingiz mumkin, ammo ishxonada bunday qilmaysiz. Bunday holatingiz siz chizgan portretda o'z aksini topadi». Uning fikricha, avtoportretidagi belgilar quyidagicha aniqlanishi mumkin:

<b>Bosh</b>	Katta bosh – o'z aqliy imkoniyatlaridan qoniqmaslik; Kichik bosh jittimoiy mavqeidan norozilik, bezovtalanish.
<b>Ko'z</b>	Katta ko'zlar – shubxalanuvchanlik, boshqalar fikriga ko'p e'tibor berish.
<b>Quloq</b>	Kichik ko'zlar yoki yumuq ko'zlar – ichki yo'nalganlik.
<b>Burun</b>	Katta quloq – tanqidga sezgirlik
<b>Burun</b>	Burunga alohida urg'u berish – jinsiy muammolarning mavjudligi; burun kataklarining kattaligi agressiya (jahldorlik).
<b>Og'iz</b>	Har qanday shaklda bo'lmasin, yaqqol ajralib tursa bu nutqiy kamchiliklarning mavjudligidan darakdir; og'izning bo'lmasligi – mulqotga kirisha olmaslik, depressiya.
<b>Qo'llar</b>	Kishining atrof olam bilan bo'lgan munosabatini ifodalaydi. Tushirilgan qo'llar – jismoniy yoki psixik nimjonlik; uzun qo'llar tashqi muhit voqea – hodisalariga kuchli berilish; kalta qo'llar – ichki, yo'llanganlik.
<b>Oyoqlar</b>	Uzun oyoqlar mustaqillikka intilish; katta oyoqlar – xavfsizlikka ehtiyoj; oyoqsiz rasm – beqarorlik, aniq maqsadlarning bo'lmaslik holati (dezertirlar odatda oyoqsiz rasm chizadilar)

Ritmik rasm (harakatdagi odamni masalan, yurayotgan, zinadan chopayotgan va h.k. Odamni tasvirovchi rasm) – intuitiv ekstrovert.

Strukturali rasm (Odamni qanday bo'lsa, shundayligicha, ba'zan faqat yuzni, byustni yoki butun bo'y-bastni tasvirovchi rasm) – intuitiv introvert.

Ushbu belgilar bo'yicha quyidagi jadvaldagi o'xshab, turli rasmlar o'rtasidagi miqdoriy farqlarni aniqlash mumkin.

#### “Avtoportret” testi bo'yicha individual – tipologik farqlar (500 kishi orasida)

Tasvir ko'rinishi G.Rid bo'yicha	Psixologik tip K.YUng bo'yicha	Tasvirlararo miqdoriy farqlar
Sanab o'tuvchi	Fikriy ekstrovert	2,4
Organik	Fikriy introvert	30,3
Emfatik	Sezuvcchi ekstrovert	3,2
Gaptik	Sezuvcchi introvert	2,2
Dekorativ	Hissiy ekstrovert	8,8
Imajitar	Hissiy introvert	13,2
Ritmik	Intuitiv ekstrovert	20,8
Strukturali	Intuitiv introvert	19,1

#### K.Leongardning test-savolnomasi yordamida o'smirlarning xarakter aksentuatsiyasini aniqlash

Test-savolnoma negizida K.Leongardning shaxs aksentuatsiyasi konsepsiyasi yotadi. Shunga asosan aksentuatsiyalar — bu har bir insonga hos bo'lgan ba'zi bir

individual xususiyatlarining "keskinlashgan, o'kirlashgan" ko'rinishidir. K.L. Congrad xarakter va temperamentning o'kirlashgan hususiyatlarini ajratadi (qarang: K.L. Congrad "Keskinlashgan shaxslar", Kiev, Vysshaya shkola, 1981).

Test 10 shakaldan iborat. Ular ro'yxat shaklida 88 savolni amalga oshiradi va javoblarning "Ha" yoki "Yo'q" ikki variantidan birini tanlab javob berishini nazarda tutadi.

Test o'tkazish uchun standart yo'riqnomaga bilan test buklet, shuningdek, standart javob varakasi bo'lishi zarur. Javob varaqasiga raqam yoniga simalayotgan kishi javob variantiga mos tarzda "q" yoki "—" belgilarini qo'yadi.

#### Savollar ro'yxati

1. Siz odatda xotirjam, quvnoqmisiz? /1/
2. Siz tez xafa bo'lib qolasizmi? /7/
3. Tez yig'lab yuborishingiz osonmi? /6/
4. O'z ishingizda xato bor-yo'qligini ko'pincha tekshirasizmi? /4/
5. Tengdoshlaringiz singari kuchlimisiz? /-2/
6. Xursandchilikdan g'am-anduxga yoki g'am-anduxdan xursandchilikka oson ko'cha olasizmi? /9/
7. O'yinlarda yetakchi bo'lishni yoqtirasizmi? /8/
8. Hech bir sababsiz hammaga jaxl qiladigan kunlaringiz bo'ladingizmi? /5/
9. Siz jiddiy odammisiz? /3/
10. Hap doim o'qituvchilar topshirig'ini vijdonan bajarishga intilasizmi? /10/
12. Y'angi o'yinlar topa olasizmi? /1/
13. Kimnidir xafa qilgan bo'lsangiz, tezda unutasisizmi? /-7/
14. O'zingizni mexribon deb hisoblaysizmi? /6/
15. Pochta qutisiga xat tashlagach, xat pochta qirrasiga tikilib qolmadimikan, deb qo'lingiz bilan tekshirib ko'rasizmi? /4/
16. Maktabda, to'garakda, sport seksiyasida eng oldinda bo'lishga intilasizmi? /7/
17. Kichkinaligingizda momaqaldiroq va itlardan qo'rquydingiz? /2/
18. Sizni o'rtloqlaringiz o'ta intiluvchan va tartibli deb hisoblashadimi? /4/
19. Sizning kayfiyatingiz uydagi va maktabdagi ishlarga bog'liq bo'ladingizmi? /9/
20. Ko'pchilik tanishlaringiz sizni yaxshi ko'radi, deb aytish mumkinmi?
21. Ko'nglingizda notinchlik bo'lib turadimi? /5/
22. Odatda biroz g'amgin yurasizmi? /3/
23. Al'am cheka turib, o'tirib yig'laganmisiz? /8/
24. Uzoq vaqt bir joyda qolish siz uchun qiyinmi? /1/
25. Sizga noxaqlik qilishganda o'z huquqingiz uchun kurashasizmi? /7/
26. Qachonlardir mushuklarni cho'zmaotardan mo'ljalga olganmisiz? /-6/
27. Parada yoki dasturxon qiyshiq turgan bo'lsa, achchig'ingiz chiqadimi?
28. Bolaligingizda bir o'zingiz uyda yolg'iz qolishdan qo'rquydingiz?
29. Sababsiz xursand yoki g'amgin bo'lib turasizmi? /9/
30. Sinfingizda eng yaxshi o'quvchining birimisiz? /8/
31. Tez-tez vaqticho'g'lik, maynabozchilik qilib turasizmi? /-3/
32. Jahlingiz tez chiqadimi? /5/
33. Ba'zida o'zingizni baxtiyor his qilaisizmi? /10/
34. Bolalarni xursand qila olasizmi? /1/

35. Biror kishi haqida o'ylayotgan fikringizning xammasini yuziga ayta olasizmi? /7/
36. Qondan qo'rqasizmi? /6/
37. Maktab topshiriqlarini sidqidildan bajarasizmi? /-4/
38. Kimgadir noxaqlik qilgan bo'lsa uning yonini olasizmi? /7/
39. Qorong'i bo'm-bo'sh xonaga kirish siz uchun yoqtimsizmi? /2/
40. Tez va noaniq ishdan ko'ra, sekinlik bilan aniq, bajariladigan ish sizga ma'qulmi? /4/
42. Odamlar bilan tez tanisha olasizmi? /9/
43. Kechalarda sidqidildan so'zga chiqasizmi? /8/
44. Uydan ko'chib ketgan paytlaringiz bo'lganmi? /5/
45. Bolalar yoki o'qituvchilar bilan bo'lgan janjaldan keyin maktabga bormaslik darajasigacha xafa bo'lganmisiz? /3/
46. Hayot sizga og'ir tuyuladimi? /8/
47. Muvaffaqiyatsizlikka uchraganingizda o'z ustingizdan kula olasizmi? /1/
48. Agar janjal sizning aybingizsiz chiqqan bo'lsa, yarashishga intilasizmi? /-7/
49. Hayvonlarni yaxshi ko'rasizmi? /6/
50. Uydan keta turib, biror narsa qolib ketmadimikan, deb tekshirgani qaytib kirasisizmi? /4/
51. Sizga yoki sizning qarindoshlaringizga biror narsa bo'lgandek tuyuladimi? /2/
52. Kayfiyatingiz ob-havoga bog'liq bo'ladingizmi? /9/
53. Savolga javobni bilsangiz ham sinfda javob berishga qynalasizmi? /-8/
54. Agar biror kishidan jaxlingiz chiqsa, yoqalashib ketasizmi? /5/
55. Bolalar orasida bo'lish sizga yoqadimi? /-3/
56. Biror ishni bajara olmasangiz, umidsizlikka tushasizmi? /10/
57. Ishlarni, o'yinlarni tashkil qila olasizmi? /1/
58. A gar yo'lda qiyinchilikka duch kelgan bo'lsangiz ham, maqsad sari astoydil intilasizmi? /7/
59. Kino ko'rayotganingizda yoki g'amgin kitob o'qiyotganingizda yig'laganmisiz? /6/
60. Biror bir tashvishdan uxlashingiz qiyin bo'ladingizmi? /4/
61. O'rtloqlaringizga darsda pichirlab aytib turasizmi, ko'chirib olishga berasizmi? /-7/
62. Qorong'i ko'chadan yolg'iz yurishga qo'rqasizmi? /2/
63. Har bir narsa joy-joyida bo'lishini kuzatasizmi? /4/
64. Uyuga yaxshi kayfiyat bilan yotib yomon kayfiyat bilan uyg'onish hollari bo'ladingizmi? /9/
66. Notanish bolalar davrasida (yangi sinfda, lagerda) o'zingizni erkin tuta olasizmi? /8/
67. Boshingiz og'rib turadimi? /5/
68. Tez-tez kulib turasizmi? /-3/
69. Agar siz biror kishini hurmat qilmasangiz, u bilan turganingizda uni hurmat qilmasligingizni sezdirmayasizmi? /8/
70. Bir kun ichida ko'plab har xil ishlarni qila olasizmi? /1/
71. Sizga tez-tez noxaqlik qilishadimi? /7/
72. Tabiatni sevasizmi? /6/
73. Uydan keta turib yoki uxlash uchun yota turib eshik qulflanligini, chiroq

o'chirilganligini tekshirasizmi? /4/

74.O'zingizni qanday odam deb hisoblaysiz, qo'rqqimisiz? /2/

75.Bayram stoli oldida kayfiyatingiz o'zgaradimi? /9/

76.Dramatik to'garakka qatnashasizmi, sahnaga chiqishni yaxshi ko'rasizmi? /8/

77.Sizda besabab ma'yus kayfiyat bo'lib, bunda hech kim bilan gaplashingiz

kelmaydigan holatlaringiz bo'ladimi? /5/

78.K elajakni ma'yuslik bilan o'ylagan holatlaringiz bo'ladimi? /3/

79.Xursandchilikdan g'aminlikka bexosdan o'tib qolish hollari bo'ladimi? /10/

80.Mehmonlar kayfiyatini chog' qila olasizmi? /1/

81.Uzoq muddat xafa bo'lib yurasizmi? /7/

82.Agar sizning do'stlaringiz bilan falokat yuz bergan bo'lsa, qattiq

tashvishlanasizmi? /6/

83.Xato tufayli daftar varag'ini qayta ko'chirgan bo'larmidingiz? /4/

84.O'zingizni ishonmaydiganlardan deb hisoblaysizmi? /7/

85.Tez-tez dahshatli tush ko'rasizmi? /2/

86.Derazadan sakrash yoki mashina tagiga o'zingizni tashlash hissi bo'lganmi? /4/

87.Atrofdagilarning hammasi vaktichog'lik qilayotgan bo'lsa, sizning vaqtingiz

ham chog' bo'ladimi? /9/

88.Agar sizda ko'ngilsiz voqealar sodir bo'lsa, vaqtinchalik ularni unuta olasizmi,

ular haqida doim o'ylamay yura olasizmi? /8/

89.Kutilmaganda o'zingizni nazorat qilolmay qolasizmi va o'zingizni

odobsizlarcha tutasizmi? /5/

90.Odatda kimgap, jim yuradiganlardansizmi? /3/

91.Dramatik tomoshada, rolga shunday kirishib ketib, hatto sahnadagidan

boshqararoq odam ekanligingizni unutib ko'yasizmi? /8/

#### Natijalarni tahtili

Har bir savolning ha javobi bir ball bilan belgilanadi. Agar ba'zi bir

savollarning oxiridagi raqam minus (-) belgisi bilan berilgan bo'lsa, sizning yo'q

javobingiz bir ball bilan baxolanadi. Savol oxirida va

quyida ushbu savol nechanchi shkalaga tegishli ekanligi ko'rsatilgan.

#### 1. Gipertim tip

q : 1, 11, 23, 33, 45, 55, 67, 77

- : yo'q

#### 2. Xavotirlanuvchi tip

q : 16, 27, 38, 49, 60, 71, 82

- : 5

#### 3. Distim tip

q : 9, 21, 43, 75, 87

- : 30, 53, 65

#### 4. Rasmiy tip

q : 4, 14, 17, 26, 39, 48, 58, 61, 70, 80, 83

- : 36

#### 5. Qo'zg'aluvchan tip

q : 8, 20, 30, 42, 52, 64, 74, 86

- : yo'q

#### 6. Emotiv tip

q : 3, 13, 35, 47, 57, 69, 79

- : 25

#### 7. Rigid tip

q : 2, 15, 24, 34, 37, 56, 68, 78, 81

- : 12, 46, 59

#### 8. Namoyishkor tip

q : 7, 19, 22, 29, 41, 44, 63, 66, 73, 85, 88

- : 51

#### 9. Sikloid tip

q : 6, 18, 28, 40, 50, 72, 84

- : yo'q

#### 10. Ekzaltir tip

q : 10, 32, 54, 76

- : yo'q

Shkala bo'yicha xosil bo'lgan birlamchi ballar jadvalda ko'rsatilgan koeffitsientga ko'paytiriladi. Agar hisoblab chiqilganda, ballar 12 balldan oshsa, xarakter aksentuatsiyasining namoyon bo'lishi ko'rinadi. 12 balldan oshgan tiplar bir nechta bo'lishi ham mumkin. Ular ichida eng yirik ball aynan sizning xarakter aksentuatsiyangizdir.

**Norma 12 ball, 15-19 ball - moyillik mavjud; 19 balldan yuqorisi aksentuatsiya belgisi (Leongard Shmishek bo'yicha)**

Shkala raqami	Aksentuatsiya tiplari	Koeffitsient	Birlamchi ballar	Aksentuatsiya ko'rsatkichi birlamchi ballarning koeffitsientiga ko'paytirilganligi
1	Gipertim	3		
2	Xavotirlanuvchi	Misol $5 \cdot 3 = 15$		
3	Distim	3		
4	Rasmiy	2		
5	Qo'zg'aluvchan	3		
6	Emotiv	3		
7	Rigid	2		
8	Namoyishkor	2		
9	Sikloid	3		
10	Ekzaltir	6		

Aksentualashgan xususiyatlarning o'zaro birgalikda kelishi K.Leongard nazariyasiga asoslangan holda maxsus analiz kilinadi. K.Leongardning aksentuatsiya tiplari insonlarning tevarak-atrofdagilar bilan kandy muloqot kilishlarini aniqlashga xizmat kiladi va o'zgacha (A.E.Lichkoning xarakter aksentuatsiyasi tiplaridan farqli o'larok) mustaqil xarakter tiplarini taklif kiladi.

#### 1. Gipertim tip

Bu tipdagi insonlar juda muloqotchkan, so'zamol, mimika, pantomimika va jestlarga boy bo'ladi. Ular oiladagi va ish joyidagi burchlariga mas'uliyatsizligi

tufayli atrofdegilar bilan kelishmovchiliklarga boradilar. Ushbu tipdagi odamlar boshkalar bilan bo'ladigan kelishmovchiliklarni o'zlarini keltirib chikaradilar, ana shunda atrofdegilar ularga tanbeh berishsa, xafa bo'ladilar. Ularning ijobiy tomonlari harakatchan, biror bir faoliyatga chanqoq, tashabbuskor.

Salbiy xususiyatlari: yengil tabiat, yengil xulq, atvorga moyil, o'ta asabiy, o'z mas'uliyatlariga jiddiy munosabatlarida bo'lmaydilar.

### 2. Xavotirlanuvchan tip

Bu tipdagi insonlar muloqotga kirishimsiz, bo'sh, o'ziga ishonmaydigan, ma'yus kayfiyatda yuruvchilardir. Juda kam holatda atrofdegilar bilan kelishmovchilikka boradilar va unda passiv ishtirok etadilar. Kelishmovchilik holatlarida o'zlariga tayanch va yordam qidiradilar, chunki ular shunga muhtoj bo'ladilar. Ko'pincha ularda do'stlik, o'z-o'ziga tanqidiy ko'z bilan qarash kabi ijobiy xususiyatlar bilan ko'zga tashlanadi. Lekin o'zini-o'zi himoya qila olmaganligi tufayli itining keyingi oyog'i bo'lib yuradi. Bunday odamlar hazil uchun manba bo'lib hisoblanadi.

### 3. Distim tip

Bu tipdagi insonlar muloqotga tez kirishmaydigan, kavgap, pessimistik kayfiyatning ustunligi bilan xarakterlanadilar. Ular asosan uyda o'tirishni afzal ko'radilar, atrofdegilar bilan kamdan-kam holatlarda kelishmovchiliklarga boradilar, chegaralangan hayot tarzida yashaydilar. Ular o'zlarini bilan do'stlashganlarni juda qadrlaydilar va ularga bo'yusunishga tayyordirlar. Ijobiy xususiyatlari: jiddiy, pok vijdonli, o'ta adolatli. Salbiy xususiyatlari – faol emas, fikrlash qobiliyati sust, kambarakat.

### 4. Rasmiy tip

Kelishmovchiliklarga juda kam holatlarda kirishadi, faol qatnashmaydi. Atrfdagilarga formal talablar qo'yib, xizmatda o'zini byurokrat sifatida tutadi. Shu bilan birga sardorlikni boshqalarga osonlikcha topshiradi. Ba'zida o'ta saramjomlikni da'vo qilish bilan boshqalarning g'ashiga tegadi. Ijobiy xislatlari: pok vijdonli, saramjom, jiddiy, sinchkov, ishga umid bilan qarovchi. Salbiy xislatlari: serjahl, qog'ozboz, ezma, nasihatgo'y, o'ta rasmiyatchi.

### 5. Qo'zgaluvchan tip

Bu tipdagi odamlar muloqotga kirishimsiz, ularda muloqotning verbal va noverbal turlari suet rivojlangan. Ko'pincha ular qovog'i soliq yuradilar, surbetlik, janjalkashlik xususiyatlariga moyildirlar, bunga o'zlarini shunday muhit yaratadilar. Jamoadagi insonlar bilan chiqisha olmaydilar, oilada hukmronlar. Emotsional turg'un holatlarda ko'pincha vijdonli, saramjom, hayvonlarni va bolalarni sevuvchidirlar. Shuningdek, emotsional qo'zg'aluvsan holatlarda serjahl, jizzaki, o'z xulq-atvorini boshqara olmaydigan xususiyatlarga egadirlar.

### 6. Emotiv / o'ta hissiyotli tip

Bu tipdagi insonlar yarim gapidan ularni tushumib oladigan, ular bilan yaxshi munosabatlar o'tmatgan, tanlangan, tor doiradagi odamlar bilan muloqotda bo'lishni xush ko'ruvchilardir. Kelishmovchiliklarga kamdan-kam sababchi bo'ladilar va bunda passiv ishtirok etadilar, Ichlarida kek saqlaydilar. Ijobiy xususiyatlari – mehribon, hamdard, o'zgalarning muvaffaqiyatlariga sherik, o'z burchlariga o'ta sodiq. Salbiy tomonlari - o'ta hissiyotli, yig'iloqi

### 7. Rigid (o'zgarmas) tip

Ushbu tipga xos odamlar mulkotga o'rtacha kirishimli, nasihatgo'y, ko'pincha

kam gapiradilar. Kelishmovchiliklarda ular tashabbuskor bo'lib faol qatnashishga harakat qiladilar. Bu insonlar o'zlariga talabchan. Ayniqsa, ijtimoiy adolati chuqur his etadigan, shu bilan birga ko'ngli nozik, arazchi, shubha bilan qarovchi, qasoskordirlar. Ba'zida o'zlariga juda ishonuvchan, haqiqatgo'y, rashkchi, qo'l ostidagi insonlarga va yaqinlarga o'ta talabchandir.

### 8. Namoyishkor tip

Bu tipdagi insonlar boshqalar bilan osonlikcha muloqotga kirishib ketish, sardorlikka intilish, lavozim va maqovlarga chanqoqlik xususiyatlari bilan tez kirishib keta olish xususiyatini namoyish qila oladi, shu bilan birga ikkiyuzlamachilikka moyil. Bu tip insonlar o'ziga o'ta ishonuvchanliklari va o'zlarini katta tutishlari bilan atrofdegilarni gashlariga tegadilar. Muntazam ravishda o'zlarini kelishmovchiliklar keltirib chiqaradilar, lekin bunda faol himoya qila oladilar. Subhatdosh uchun muloqotda yoqimli xususiyatlari: turli vaziyatdan chiqib ketishlik, artistlik, boshqalarni o'ziga jalb qila olishlik. O'zidan itaruvchi sifatleri: egoistlik, laganbardorlik, maqtanchoklik, ishyoqmaslik.

### 9. Sikloid tip

Bu tipdagi insonlarning kayfiyatleri tez-tez o'zgarib turishi natijasida, atrofdegilarga bo'lgan munosabati ham o'zgaruvchandir. Ular shu paytda o'zlarini gijpertimlarga o'xshab tutadilar. Ko'tarinki kayfiyatda bo'lganlarida muloqotga kirishuvchan, tushkunlik kayfiyatda muloqotga kirishmaydigan, indamas xususiyatlarga egadirlar. Shunday kayfiyatda distim tipdagilarga o'xshab ketadilar.

### 10. Ekzaltir tip

Bu tipdagi insonlar muloqotga o'ta kirishimli, sergap, ko'ngilchan. Ko'pincha bunday odamlar bahslashadilar, lekin bahsni ochiqdan-ochiq kelishilmovchiliklarga olib bormaydilar. Kelishilmovchilik vaziyatlarda ham passiv, ham aktiv bo'lishlari mumkin. Shu bilan birga ular do'stlari va yaqinlariga g'amxo'r - mehribon va ularga bog'lanib qolganlar. Ijobiy xislatlari - bag'ri keng, hamdard, yaxshi didli, yaxshilik qilishni sevadigan. O'zidan itaruvchi sifatleri: vahimachi, bir daqiqalik kayfiyatga moyil.

## Shaxsning kommunikativ va tashkilotchilik moyilliklari diagnostikasi metodikasi

Ushbu metodika yuqori sinf tinglovchilari bilan olib boriladigan psixodiagnostik chora-tadbirlar va kasbga yo'naltirish ishlarida keng qo'llanadi. Uni individual tarzda ham, guruhda ham o'tkazish mumkin.

**Ko'rsatma:** Quyidagi savollarga javob bering, savolga «ha» deb javob bersangiz tegishli tartib raqami oldiga «q» belgisini, «yo'q» deb javob bersangiz («>» belgisini qo'ying).

### Savollar

1. Doim suhbatlashib turadigan do'stlaringiz ko'pmi?
2. Ko'p hollarda do'stlaringizni o'z fikringizga og'dira olasizmi?
3. Do'stlaringizdan biri sizni ranjitsa, uzoq vaqt xafa bo'lib yurasizmi?
4. Murakkab vaziyatlarda o'zingizni o'nglab olishingiz doim qiyin kechadimi?
5. Har xil yangi odamlar bilan tanishishga intilasizmi?
6. Ijtimoiy faoliyat bilan shug'ullanish sizga yoqadimi?
7. Vaqtningizni odamlar bilan emas, ko'proq kitob o'qish bilan yoki boshqa ishlar bilan o'tkazishni yoqtirishingiz rostmimi?

8. Biror maqsadga erishish yo'lida oldingizda to'siqlar paydo bo'lsa, niyatningizdan tezda voz kechasizmi?
9. Yoshi sizdan ancha katta bo'lgan odamlar bilan oson aloqa o'rnatilmasizmi?
10. Do'stlaringiz bilan har xil o'yinlar, ko'ngilochar tadbirlarni uyushtirishni yaxshi ko'rasizmi?
11. Yangi jamoaga qo'shilib olishingiz qiyinmi?
12. Bugun bajarilishi mumkin bo'lgan ishlarni tez-tez ertaga qoldirib turasizmi?
13. Notanish odamlar bilan oson aloqa o'rnatilmasizmi?
14. Do'stlaringiz sizning fikringizga monand ish qilishini talab etasizmi?
15. Siz uchun yangi bo'lgan jamoaga qo'shilib ketishingiz qiyinmi?
16. Do'stlaringiz o'z majburiyatlarini, vazifalarini bajarmaganda, ular bilan «sana» man'ga bormasligingiz rostmi?
17. Imkoniyat bo'ldi deguncha yangi odam bilan tanishishga, subhatlashishga intilasizmi?
18. Muhim masalalarni hal etishda, ko'pincha tashabbusni o'z zimmamizga olasizmi?
19. Atrofdagilar g'ashingizga tegadimi, yolg'iz qolishni xohlaysizmi?
20. Notanish joyda o'zingizni tez o'nglab ololmasligingiz rostmi?
21. Doim odamlar orasida bo'lish sizga yoqadimi?
22. Boshlagan ismi oxiriga etkaza olmasangiz asabiy lashasizmi?
23. Biror yangi odam bilan tanishmoqchi bo'lganingizda, sizda uyalish, tortinish hislari paydo bo'ladimi?
24. Do'stlaringiz bilan ko'p so'x'batlashishdan charchaysizmi?
25. Jamoa bo'lib o'ynaladigan o'yinlarni yoqtirasizmi?
26. Do'stlaringiz manfaatlariga tegishli masalalarni hal etishda tez-tez tashabbuskor bo'lib turasizmi?
27. Siz unchalik yaxshi tanimaydigan odamlar davrasida o'zingizni ishonchsiz his etasizmi?
28. Kamdan kam hollarda fikringiz to'g'ri ekanligini isbotlashga urinasizmi?
29. Sizingcha, notanish odamlar guruhiga ko'tarinki kayfiyatni olib kirish osonmi?
30. Ijtimoiy faoliyatda ishtirok etasizmi?
31. Tanishlaringiz soni o'zgina bo'lishiga intilasizmi?
32. Do'stlaringiz sizning fikringizga qo'shilmasa, baribir uni isbotlashga urinasizmi?
33. Notanish odamlar jamoasida o'zingizni erkin his etasizmi?
34. Turli tadbirlarni tashkil etishga jon-dildan kirishasizmi?
35. Ko'pchilik oldida so'zlayotganingizda o'zingizni erkin his etasizmi?
36. Turli uchrashuvlarga tez-tez kech qolib turasizmi?
37. Do'stlaringiz sizning fikringizga qo'shilmasa, baribir uni isbotlashga urinasizmi?
38. Ko'pincha do'stlaringiz diqqat e'tibori markazida bo'lib turasizmi?
39. Notanish odamlar bilan subhatlashganingizda ko'pincha o'zingizni noqulay his etasizmi?
40. Do'stlaringizning katta davrasida o'zingizni ishonchli his etishingiz rostmi.

### Natijalarni qayta ishlash

1. Sinaluvcular javoblarini kalit bilan solishtirish va o'zaro mos javoblar miqdorini aniqlash kerak.

#### KALIT

Kommunikativ moyillik		Tashkilotchilik moyillik					
1. q	3. -	5. q	7. -	2. q	4. -	6. q	8. -
9. q	11. -	13. q	15. -	10. q	12. -	14. q	16. -
17. q	19. -	21. q	23. -	18. q	20. -	22. q	24. -
25. q	27. -	29. q	31. -	26. q	28. -	30. q	32. -
33. q	35. -	37. q	39. -	34. q	36. -	38. q	40. -

2. Kommunikativ moyilliklar koeffitsenti /Kk/ ni va tashkilotchilik moyilliklari /Kt/ ni quyidagi formulalar orqali aniqlash.  
Kk = o'zaro mos javoblar miqdori X 0,05 Kt = o'zaro mos javoblar miqdori X 0,05

Olingan natijalar 0 va 10ralig'ida joylashadi. Ko'rsatkichning 1ga yaqin bo'lishi kommunikativ va tashkilotchilik moyilliklari yuqori ekanini, 0 ga yaqin bo'lishi esa past ekanligini ko'rsatadi.

Ko'rsatkichlarni baholash uchun quyidagi jadvaldan foydalaniladi.

Kk	Kt	Baho
0,1 - 0,45	0,2 - 0,55	1
0,46 - 0,55	0,56 - 0,65	2
0,56 - 0,65	0,66 - 0,70	3
0,66 - 0,75	0,71 - 0,80	4
0,76 - 1,00	0,81 - 1,00	5

#### Baholar tavsifi

1. Kommunikativ va tashkilotchilik moyilliklari sust.
2. Kommunikativ va tashkilotchilik moyilliklari o'rtacha darajaga yetmaydi. Tashabbusni o'z zimmasiga olmaydigan, vaqtni tanholikda o'tkazishni xush ko'radigan, notanish odamlar bilan subhatlashayotganda, ko'pchilik oldida biror narsani aytib berayotganda o'zini noqulay his etadigan, xafagarchilikni og'ir o'tkazadigan odam.
3. Kommunikativ va tashkilotchilik moyilliklari o'rtacha. Odamlar bilan aloqa qilishga intiladigan, tanishlari doirasini chegaralab qo'yamaydigan, o'z fikrini himoya qiladigan odam. Ammo uning bu hususiyatlari barqaror emas.
4. Kommunikativ va tashkilotchilik moyilliklari yuqori darajada. Yangi sharoitda o'zini yo'qotib qo'yamaydigan, tanishlari doirasini doim kengaytirishga intiluvchi, muloqotda tashabbuskor, ijtimoiy faoliyatda jonbozlik bilan ishtirok etadigan, murakkab vaziyatda mustaqil qaror qabul qila oladigan odam.
5. Kommunikativ va tashkilotchilik moyilliklari juda yuqori. Kommunikativlik va tashkilotchilik ehtiyoji bo'lib qolgan, doim uni qondirishga intiladigan, yangi jamoada, yangi muhitda o'zini juda erkin tutadigan, tashabbuskor, o'z fikrini oxirigacha himoya qiladigan, turli o'yinlarni, tadbirlarni uyushtirishni yaxshi ko'radigan odam.



### Empatiya qobiliyatini o'rganish metodikasi

Mazkur so'rovnomaga I.M.Yusupov tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, empatiya qobiliyatining rivojlanish darajasini aniqlash maqsadida qo'llanadi. Empatiya insonning boshqalar kechinmalariga hamdard bo'la olish qobiliyati.

Ko'rsatma: "Hurmatli ishtirokchi, quyida berilgan 36 ta hukmga nisbatan o'z munosabatingizni bildiring. Buning uchun siz baholashning quyidagi tizimidan foydalanishingiz lozim: 0- bilmayman; 1- yoki, hech qachon; 2- ba'zida; 3- ko'pincha; 4- deyarli doim; 5- ha yoki har doim".

1. Menga mashhur odamlarning hayoti haqidagi kitoblardan ko'ra sarguzasht kitoblar yoqadi.

2. Ota-onalarning g'amxo'rligi katta yoshdagi bolalarning g'ashiga tegadi.

3. Menga boshqa odam erishgan muvaffaqiyat yoki uchragan muvaffaqiyatsizlikning sabablari haqida mulohaza yuritish yoqadi.

4. Musiqiy ko'rsatuvlar orasidan men ko'proq "Estrada taronalari" ko'rsatuvini yoqtiraman.

5. Adolatsiz tanqidlar bir necha yillar davom etsa ham, ularga chidash kerak.

6. Kasalga hatto so'z bilan yordam berish mumkin.

7. Begonalar ikki kishi orasidagi nizoga qo'shilmasligi kerak.

8. Keksayganda odam juda inij bo'lib qoladi.

9. Bolaligimda g'amgin hikoyani tinglaganimda, ko'zim o'z-o'zidan yoshlanib ketardi.

10. Ota-onamning asabiy lashishi mening ham kayfiyatimga ta'sir etadi.

11. Men tanqidlarga befarqman.

12. Men tabiat manzaralari tasvirlangan rasmlardan ko'ra portretlarni tomosha qilishni yoqtiraman.

13. Ota-onam noxaq bo'lganda ham, men ularni kechirardim.

14. Agar ot aravani tortmasa, uni xivichlash kerak.

15. Boshqa odamlar hayotidagi fojealar haqida o'qiganimda bu hodisalar men bilan ro'y berayotganday bo'lib tuyuladi.

16. Ota-onalar o'z farzandlariga nisbatan noxaq munosabatda bo'ladilar.

17. Janjallashayotgan bolalarni yoki kattalarni ko'rsam men ular o'rtasiga tushaman.

18. Men ota-onamning yomon kayfiyatiga e'tibor bermayman.

19. Men boshqa ishlarimni qoldirib, hayvonlar xatti-harakatini kuzataman.

20. Nega ayrim odamlar kinofilmlar ko'rib va kitob o'qib, ko'z yosh to'kishini tushunmayman.

21. Notanish odamlarning yuz ifodasi va xulq-atvorini kuzatish menga yoqadi.

22. Bolalikda men uyga qarovsiz qolgan kuchuk va mushuklarni olib kelardim.

23. Barcha odamlar biror sababsiz ham bir-biriga qarshi tishini qayrab turadi.

24. Begona odamga qarab, uning kelajagi qanday bo'lishini bilгим keladi.

25. Bolaligimda kichkintoylar hech ketimdan qolishmasdi.

26. Jarohatlangan hayvonni ko'rsam, unga qandaydir yordam berishga harakat kilaman.

27. Odamni e'tibor bilan tinglashsa, uning dardi engillashadi.

28. Ko'chada biror qoidabuzarlikni ko'rsam, guvohlar qatoriga tushib qolishdan o'zimni chetga tortaman.

29. Kichkinarlarga men taklif etgan fikr, ish yoki ko'ngilocharlik yoqadi.

30. Hayvonlar o'z egalarining kayfiyatini sezadi deganlar, menga mubolag'a qiladi.

31. Muammoli vaziyatdan odamning o'zi mustaqil chiqishi kerak.

32. Bola besabab yig'lamaydi.

33. YOshlar qariyalarning hamma iltimosini va inijliklarini bajo keltirishi kerak.

34. Nima uchun ayrim sinfdoshlarim ba'zida o'yechan bo'lib qolishlarini bilгим kelardi.

35. Qarovsiz hayvonlarni tutish va yo'q qilish kerak.

36. Agar do'stlarim men bilan o'z shaxsiy muammosini muhokama qila boshlasa, gapni boshqa mavzuga burishga harakat qilaman.

### Natijalarni qayta ishlash

1. Javoblar xolisligini aniqlash uchun muayyan hukmlarga qanday javoblar berilganligini aniqlash lozim;

"Bilmadim"- 2,4,16,18,33.

"Ha yoki har doim"-2,7,11,13,16,18,23.

"Ha yoki har doim"-7,17,10 va 18, 17,31,22,25,26,27,28,29 va 32 raqami ostidagi.

"Yo'q yoki hech qachon"-3,36,1,3,17,28.

Eslatma: ma'lum juftlik kirgan ikkala hukm masalan, "ha yoki har doim" dagi 7 va 17 yoki "yo'q yoki hech qachon" dagi 3 va 36 raqamli hukmlarga bir hil "ha yoki har doim" yoki "yo'q yoki hech qachon" kabi munosabat bildirilgan bo'lsa, bu munosabat xolis emas.

Noxolis munosabat holatlari 5 teng yoki undan katta-umumiy natija ishonchli emas.

Noxolis munosabat holatlari 4 ga teng-umumiy natijaning ishonchli darajasi shubxali.

Noxolis munosabat holatlari 3 ga teng yoki undan kam-umumiy natija ishonchli.

2. Umumiy natijani aniqlash. Yakuniy natijani aniqlash uchun

2,5,8,9,10,12,13,15,16,19,21,22,24,25,26,27,28,29 va 32 raqami ostidagi

hukmlarga qo'yilgan baholarning yig'indisini topish kerak.

Eslatma: So'rovnomaga 6 ta shkalaga ega bo'lib, quyida ushbu shkalalar hamda har bir shkalaga kiruvchi hukmlarning tartib raqami ko'rsatilgan.

№	shkalalar hukmlar	tartib raqami
1.	Ota onaga nisbatan empatiya	10, 13, 16
2.	Hayvonlarga nisbatan empatiya	19, 22, 25
3.	Qariyalarga nisbatan empatiya	02, 05, 08
4.	Bolalarga nisbatan empatiya	26, 29, 35
5.	Badiiy qahramonlarga nisbatan empatiya.	09, 12, 15
6.	Notanish odamlarga nisbatan empatiya	21, 24, 27

### Natijalarni baholash

Daraja	shakl	bo'yicha	umumiy
Juda yuqori		15	82-90
Yuqori		13-14	63-81
O'rta		5-12	37-62

Past	2-4	12-36
Juda past	0-1	5-11

### Psixologik testlar:

- Muloqot muammosi bilan qaysi o'zbek olimlari shug'ullangan?  
a) M.G.Davletshin; b) E.Oziev;  
v) V.Karimova; g) S.To'ychieva.

- Muloqot sirlari haqida qaysi olimning kitobi nashr qilingan?  
a) E.Oziev; b) V.Karimova;  
v) S.To'ychieva; g) D.Karnegi.

### Muloqotchanlikni aniqlovchi test:

- Siz gapirishdan ko'ra eshitishni yaxshi ko'rasizmi?
- Siz o'zingiz tanimagan kishi bilan suhbatlashish uchun har xil mavzu topa olasizmi?
- Siz doimo o'z suhbatdoshingizni diqqat-e'tibor bilan, o'ta ziyorlik bilan tinglaysizmi?
- Siz o'zga kishilarga maslahatlar berishni yoqtirasizmi?
- Suhbat mavzusi siz uchun qiziqarli bo'lmasa suhbatdoshingizga buni bildira olasizmi?
- Suhbatdoshingiz sizni tinglamayotganini sezsangiz jahlingiz chiqadimi?
- Sizni har qanday masala yuzasidan o'z shaxsiy fikringiz bormi?
- Suhbat mavzusi siz uchun notanish bo'lsa suhbatni davom ettirasizmi?
- Siz hammaning nigohida, diqqat markazida bo'lishni yoqtirasizmi?
- Siz yetarli darajada bilimga ega bo'lgan kamida uchta predmet asosini egallaganmisiz?
- O'zingizni dilkash deb hisoblaysizmi? Testning kaliti: "Ha"-1, 2, 3, 6, 7, 8, 9, 10, 11;

"Yo'q"-4, 5. Har bir javob 1 ball. 1-3 : Siz bilan muloqotda bo'lish har doim ham yoqimli emas, hatto ba'zida bu jarayon juda og'ir kechadi. 4-9 ball: Siz boshqalar uchun yoqimli suhbatdoshsiz, ammo kayfiyatingizga ko'p narsa bog'liq. 10-11 b: Siz muloqot jarayonida juda yoqimli suhbatdoshsiz, ammo uni juda oshirib yubormang.

### IV. KEYSLAR BANKI Mikrokeyslar

#### 1- vaziyat.

Dars paytida barcha ta'lim oluvchilar tinchlanib, xonada sokinlik hukm surmoqda, birdaniga kimdir qattiq kulib yubordi. O'qituvchi hech narsa deyishga ulgurmay savol nazari bilan hayron bo'lib o'sha ta'lim oluvchiga qaradi. U esa ko'zlariga tik qarab shunday dedi: "Siz dars o'tayotganingizda meni har doim kulgim keladi".

#### 1. Savollar:

- Bu vaziyatga qanday munosabat bildirasiz?
- O'qituvchiga va ta'lim oluvchiga nima maslahat berish mumkin.

#### 2- vaziyat.

Sizni maktabga ishga qabul qilishdi va bir necha dars o'tiganingizdan so'ng bir tinglovchi oldingizga kelib shunday dedi: "Siz pedagog sifatida bizga biron-bir narsani o'rgatasiz, deb o'ylamayman".

#### 2. Savollar:

- Bu vaziyatga qanday munosabat bildirasiz?
- O'qituvchiga va o'quvchiga nima maslahat berish mumkin.

#### 3- vaziyat.

O'qituvchi tinglovchiga vazifa beradi. Tinglovchi esa vazifani bajargisi kelmay "Men bu ishini qilishni xohlamayman" deydi. O'qituvchining munosabati qanday bo'lishi kerak?

#### 3. Savollar:

- O'qituvchining munosabati qanday bo'lishi kerak?
- O'qituvchiga va tinglovchiga nima maslahat berish mumkin.

#### 4- vaziyat

Tinglovchi o'qituvchiga: "Sizning keyingi ikkita darsingizga kirmayman, chunki men bu vaqtda konsertga bormoqchiman (yoki sport musobaqasiga, do'stlarim bilan dam olgani boraman, juda charchadim)".

#### 4. Savollar:

- Unga qanday javob bergan bo'lardingiz?
- O'qituvchiga va tinglovchiga nima maslahat berish mumkin.

#### 5- vaziyat

Tinglovchi xonaga kirib kelgan o'qituvchiga qarata shunday deydi: "Siz bugun juda ham charchagan va horg'in ko'rinasiz".

#### 5. Savollar:

- O'qituvchi bunga qanday munosabat bildirishi kerak?
- O'qituvchiga va tinglovchiga nima maslahat berish mumkin.

#### 6- vaziyat

"Sizni mashg'ulotlaringiz menga yordam bermayapti. Men umuman maktabdan ketmoqchiman".

#### 6. Savollar:

- O'qituvchi bunga qanday munosabat bildirishi kerak?

2. O'qituvchiga va o'quvchiga nima maslahat berish mumkin.

**7- vaziyat**

Tinglovchi o'ziga juda ishongan holda o'qituvchiga shunday deydi: "Agar men xohlasam hamma ishni uddasidan chiqishim mumkin. Shu bilan birga sizning faningizni mukammal egallash men uchun qiyinchilik tug'dirmaydi".

**7. Savollar:**

1. O'qituvchi bunga javoban nima deyishi kerak?
2. O'qituvchiga va tinglovchiga nima maslahat berish mumkin.

**8- vaziyat**

Tinglovchi o'qituvchiga: "Menga o'quv fanlarini egallash qiyin emas. Meni qobiliyatli tinglovchi deyishadi".

**8. Savollar:**

1. O'qituvchi bunga javoban nima deyishi kerak?
2. O'qituvchiga va tinglovchiga nima maslahat berish mumkin.

**9- vaziyat**

Tinglovchi o'qituvchiga: "Men uy vazifasini bajarishni unutibman (daftarimni olib kelishni va hok.)".

**9. Savollar:**

1. O'qituvchining bunga munosabati qanday bo'lishi kerak?
2. O'qituvchiga va tinglovchiga nima maslahat berish mumkin.

**10- vaziyat**

Tinglovchi o'qituvchi bilan subhatda shunday dedi: "Boshqa tinglovchilarga nisbatan menga yaxshiroq munosabatda bo'lishingizni xohlar edim".

**10. Savollar:**

1. Tinglovchining bu iltimosiga javoban o'qituvchi qanday javob berishi kerak?
2. O'qituvchiga va tinglovchiga nima maslahat berish mumkin.

**11- vaziyat**

Tinglovchi fanni yaxshi o'zlashtirisha olmayotganligi to'g'risida o'qituvchiga: "Meni nima xavotirga solayotganligini aytdim, endi siz menga buning sababi nimada ekanligi va men nima qilishim kerakligini avtsangiz".

**11. Savollar:**

1. O'qituvchining bunga munosabati qanday bo'lishi kerak?
2. O'qituvchiga va tinglovchiga nima maslahat berish mumkin.

**12- vaziyat**

Tinglovchi o'qituvchiga: "Menga sizni darsda gapirishingiz va nimanidir himoya qilishingiz umuman yoqmaydi" — O'qituvchining javobi qanday bo'lishi kerak.

**12. Savollar:**

1. O'qituvchining bunga munosabati qanday bo'lishi kerak?
2. O'qituvchiga va tinglovchiga nima maslahat berish mumkin.

**V. GLOSSARIY**

TERMIN	IZOH
<b>ADAPTATSIYA</b>	tashqi sharoitlarga moslashish bulib, buning o'zi analizatorlarning o'zidagi o'zgarishlarni sezish bilan bog'liq fiziologik adaptatsiya va yangi guruhlardagi yangi faoliyat turiga moslashishda ijtimoiy-psixologik adaptatsiyalarga ajratiladi
<b>ANALIZATOR</b>	murakkab neyrofiziologik tizim bo'lib, odamga ta'sir etuvchi qo'zg'atishlarni idrok etish va uni tahlil qilishni ta'minlaydi. Analizator retseptor, nerv yo'llari, miya bilan bog'lanadigan qismi va miyaning maxsus spetsifik bo'limlarini o'z ichiga oladi
<b>APATIYA</b>	kishining og'ir kechinmalar yoki kasalliklardan toliqishi natijasida kelib chiqadigan hamda uning tevarak-atrofdagi olamga nisbatan hech qanday qiziqishsiz befarq qarashlarda ifodalangan psixik holat
<b>GESHTALT PSIXOLOGIYA</b>	hozirgi zamon chet el psixologiya maktablaridan biri bo'lib, XX asrning 30 yillarida Germaniyada bunyodga kelgan. Bular murakkab psixik hodisalarni tushuntirish uchun hodisalarning bir butunligi prinsipidan foydalanadilar
<b>TEST</b>	inglizcha so'z bo'lib, sinash, tekshirish, demakdir. Shaxsning aqliy o'sishini, qobiliyatini, irodaviy sifatleri va boshqa psixik xususiyatlarini tekshirishda qo'llanadigan qisqa standart masala, topshiriq, misol, jumboqlar test deb ataladi
<b>INTERVYU</b>	bu ijtimoiy psixologiya metodi bo'lib, qo'yilgan savollarga berilgan javob tariqasida axborotlarni to'plash usuli
<b>DEDUKSIYA</b>	umumiy hukmlardan yakka hukmlarga qarata borish orqali mantiqiy xulosa chiqarishdan iborat tafakkur jarayoni
<b>DEPRESSIYA</b>	tushkunlik kayfiyati bo'lib, bu kishida intilishlarning susayishi, harakatlarning tormozlanishi bilan bogliq ravishda yuzaga keladigan ruhiy holatdir
<b>DETERMINIZM</b>	tabiatdagi barcha narsalar, shu jumladan psixik hodisalarning ro'y berishi ob'yektiv sabablar va qonunlar bilan belgilanadi deb qarashdir
<b>DETERMINIZM</b>	(lot.-aniqlamoq) - barcha hodisalarni vujudga kelishi va mavjud bo'lishidagi umumiy qonuniyatlar bog'liqligi haqidagi ta'limot
<b>YETAKCHI FAOLIYAT</b>	faoliyat turlaridan biri bo'lib, bunda ma'lum davr ichida shaxsning sifat jihatidan o'zgarishi shakllanadi. Masalan, bog'cha yoshi davridagi uyin faoliyati
<b>YOSH</b>	individning ma'lum, aniq vaqtda belgilangan psixik taraqqiyotining bosqichi. Ushbu bosqichlarda uning shaxs sifatidagi fiziologik va psixologik o'zgarishlari kuzatiladi.
<b>IDROK</b>	sezgi organlarimizga bevosita ta'sir etib turgan narsa va hodisalarni ongimizda butun yaxlit holda aks ettirilishidan iborat bo'lgan psixik jarayon
<b>IDROKNING KONSTANTLIGI</b>	idrok sharoiti o'zgarsada, idrok qilishdan hosil bo'lgan predmet obrazlari (ularning shakli, rangi, hajmi)ning nisbatan o'zgarimasligi, turg'unligi holati

## VI. ADABIYOTLAR RO'YXATI

### O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, "O'zbekiston", 2017 yil, - B.488.
2. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, "O'zbekiston", 2016 yil, - B.56.
3. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. Toshkent, "O'zbekiston", 2017 yil, - B.48.
4. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent, "O'zbekiston", 2017 yil, - B.104.

### Normativ-huquqiy xujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 1998.
2. "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli farmoni
3. "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zR. Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi PF-5198-sonli Farmoni
4. "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida" O'zR. Prezidentining 2016 yil 9 sentyabrdagi PQ- 3261-sonli Qarori
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16 - fevraldagi "Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida" gi 25 -sonli qarori
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 20 maydagi "Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora- tadbirlari to'g'risidagi" PQ- 1533-son qarori

### Maxsus adabiyotlar

1. Kazakov V. G. Psixologiya. - M., 1989. - S.270-281.
2. Krutetskiy V.A. Pedagogik psixologiya asoslari. - T., 1976. - B.283-294.
3. Nabijonova D. Psixologiya ma'ruzalar matni, Fargona politexnika instituti. Farg'ona, 1999. - B.78-83.
4. G'oziev E. Psixologiya. Toshkent, "O'qituvchi", 1996.
5. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. - T.: «O'qituvchi», 1994.
6. G'oziev E. Pedagogik psixologiya asoslari. - T.: «O'qituvchi», 2000.
7. Adizova T.M. Tinglovchilarning shaxslararo munosabatlari psixologik diagnostikasi va korreksion ishlar. -T., 1995.
8. Henry Kellerman, PH.D. Anthony Burry, PH.D. Handbook of Psychodiagnostic Testing. - Springer Science Business Media, LLC.2007.
9. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya. -T.: O'qituvchi, 2010.
10. Xurvalieva T. Maktabda psixologik xizmatni tashkil etish. A.Avloniy nomidagi XTXQTMOMI, 2006.

11. Elizabeth A. Styles. The psychology of attention. This edition published in The Taylor & Francis e-Library, 2005. - R. 232.
12. Myers D.G. Psychology. Ninth Edition. - Worth Publishers, 2010. - R.910.
13. Schiffman H.R. Sensation and Perception: An Integrated Approach. 5th Edition. - John Wiley & Sons, 2001. - R. 608.
14. The Cambridge Handbook of Personality Psychology// Edited by Philip J. Corr. Cambridge University Press, 2009.

15. Годфруа Ж. Что такое психология? М., -2009.
16. Крылов А.А., Маничева С.А. Практикум по общей, экспериментальной и прикладной психологии. - СПб.: Питер, 2005. С-550.
17. Мартин Д. Психологические эксперименты. Секреты механизмов психики. - СПб.: прайм-ЕВРОЗНАК, 2004. С-480.
18. Рогов Э.И. Настольная книга практического психолога.-М., 2009.
19. Абрамова Г.С. Практическая психология. Москва, «Академический проект», 2001.
20. Акимова М.К., Гуревич К.М. Психологическая диагностика. Москва, 2005.

### Internet resurslar

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi: [www.edu.uz](http://www.edu.uz).
2. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi: [www.uzedu.uz](http://www.uzedu.uz).
3. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Multimedia umumta'lim dasturlarini rivojlantirish markazi: [www.eduportal.uz](http://www.eduportal.uz).
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markaz: [www.bimm.uz](http://www.bimm.uz)
5. Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi: [www.giu.uz](http://www.giu.uz)
6. Malaka oshirish muassasalari: <http://www.pedagog.uz>
7. O'zbekiston Respublikasi Hukumati portali: <http://www.gov.uz>
8. "Iste'dod" jam'armasi: <http://www.istedod.uz>
9. Respublika bolalar kutubxonasi: [www.kitob.uz](http://www.kitob.uz)
10. Ijtimoiy axborot ta'lim portali: [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)

## MUNDARIJA

KIRISH .....	3
I. AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI .....	6
II. FANNI O'QITISHDA FOYDALANILGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI .....	8
III. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI .....	14
IV. KEYSLAR BANKI .....	35
V. GLOSSARIY .....	37
VI. ADABIYOTLAR RO'YXATI .....	38

MUKUMOVA DILRABO INATOVNA  
JUMANOV ALISHER ASATILLAEVICH  
YAROVA SEVARA BOXODIR QIZI

## KASBIY PSIXOLOGIYA

fanidan amaliy mashg'ulotlarni o'qitish texnologiyalari bo'yicha  
(ustubiy ko'rsatma)

Muharrir: M.Mustafoeva

Bosishga ruxsat etildi: 21.06.2022 y. Qog'oz o'lchami: 60x84 - 1/16  
Hajmi: 2,75 bosma tabaq, 10 nusxa. Buyurtma № 0167  
"TIQXMMI" MTU bosmaxomasida chop etildi.  
Toshkent-100000, Qort-Nijoziy ko'chasi 39 uy.

**BELGI UCHUN**

- 1. ...
- 2. ...
- 3. ...
- 4. ...
- 5. ...
- 6. ...
- 7. ...
- 8. ...
- 9. ...
- 10. ...
- 11. ...
- 12. ...
- 13. ...
- 14. ...
- 15. ...
- 16. ...
- 17. ...
- 18. ...
- 19. ...
- 20. ...
- 21. ...
- 22. ...
- 23. ...
- 24. ...
- 25. ...
- 26. ...
- 27. ...
- 28. ...
- 29. ...
- 30. ...
- 31. ...
- 32. ...
- 33. ...
- 34. ...
- 35. ...
- 36. ...
- 37. ...
- 38. ...
- 39. ...
- 40. ...
- 41. ...
- 42. ...
- 43. ...
- 44. ...
- 45. ...
- 46. ...
- 47. ...
- 48. ...
- 49. ...
- 50. ...
- 51. ...
- 52. ...
- 53. ...
- 54. ...
- 55. ...
- 56. ...
- 57. ...
- 58. ...
- 59. ...
- 60. ...
- 61. ...
- 62. ...
- 63. ...
- 64. ...
- 65. ...
- 66. ...
- 67. ...
- 68. ...
- 69. ...
- 70. ...
- 71. ...
- 72. ...
- 73. ...
- 74. ...
- 75. ...
- 76. ...
- 77. ...
- 78. ...
- 79. ...
- 80. ...
- 81. ...
- 82. ...
- 83. ...
- 84. ...
- 85. ...
- 86. ...
- 87. ...
- 88. ...
- 89. ...
- 90. ...
- 91. ...
- 92. ...
- 93. ...
- 94. ...
- 95. ...
- 96. ...
- 97. ...
- 98. ...
- 99. ...
- 100. ...